

**Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarida
xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash yuzasidan 2023-yilda
amalga oshirilgan ishlar bo'yicha umumiy
ma'lumot**

1. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarida "Ayol va qonun. O'zbekistonda xotin-qizlarning huquqiy himoyasi" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Tadbirlarga ma'ruzachi sifatida Toshkent davlat yuridik Universiteti professorlari, taniqli san'atkorlar, olimlar, yozuvchi va shoirlar taklif etildilar.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlar xotin-qizlarimizga qadimdan xos bo'lgan, ijtimoiy-tarixiy va madaniy rivojlanish jarayonida shakllanib, milliy qadriyatimizga aylangan, hozir ham ayollarimizning xatti-harakatlari, turmush tarzi va ijtimoiy borliqqa munosabatlarini belgilab berayotgan ko'rsatkichlar haqida, mustaqillik yillarida ayollarning davlat boshqaruvi tizimidagi ishtirokini kengaytirish ham huquqiy, ham moddiy qo'llab quvvatlanmoqdaligi xaqida so'z bordi. Xar bir tadbir so'nggida ma'ruzachilar barcha qatnashchilar tomonidan o'zlarini qiziqtirgan savollariga mutaxassis sifatida javob berdilar.

2. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan liderlik xususiyatiga ega bo'lgan, tashabbuskor, iqtidorli xotin-qizlar ro'yxatining elektron bazasi fayta shakllantirildi va rahbar kadrlar zaxirasiga kiritilgan iqtidorli xotin-qizlar to'g'risidagi ma'lumotlar umumlashtirildi.

3. Vazirlik va uning tizimosti tashkilotlarida bugungi globallashuv davrida yoshlarning ta'lim-tarbiyasini tizimli yo'lga qo'yishga yo'naltirilgan madaniy hordiq dasturlari joriy etilgan. Yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi g'oyaviy tahdidlarga qarshi ularning immunitetini shakllantirish hamda kuchaytirishga, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish zamirida yoshlarni ilm-fanga, ma'rifatga qiziqtirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, sohada mehnat faoliyatini olib borayotgan yosh ishchi-xodimlar o'rtasida "Yangi O'zbekiston yoshlari" mavzusida "ZAKOVAT" intellektual o'yinlari muntazam

ravishda o'tkaziladi. Ushbu tadbirlarda soxada faoliyat olib borayotgan xotin - qizlar ham faol ishtirok etishdi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16 iyundagi "Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5148-son qarori va 2022 yil 7 martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoniga muvofiq hamda geologiya tarmog'ida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar orasida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida joriy yil Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar o'rtasida "Geolog ayollar – nafosat timsoli" shiori ostida "Gimnastrada" musobaqalari o'tkazildi.

5. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizimosti korxonalarida faoliyat yuritayotgan ayollar tizimli ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazilib borildi. Ushbu tadbir bugungi kundayam davom ettirilmoqda.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 22 noyabrdagi 10/1-525-sonli xatiga muvofiq, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan e'lon qilingan 25 noyabr – Xalqaro ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish kuniga bag'ishlangan "Zo'ravonlikka qarshi 16 kun" turkum tadbirlar doirasida "Biz zo'ravonlikka qarshimiz" va "Oila – muqaddas qo'rg'on" mavzularida seminarlar o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Toshkent shaxar Ichki ishlar Bosh boshqarmasi xodimlari tomonidan xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish mavzusida ma'ruzalari tinglandi.


Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish, ularning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish maqsadida "Tazyiq va zo'ravonlikka qarshi kurashish – ustuvor vazifa" mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “25 noyabr - Xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish kuni”ga bag‘ishlangan ushbu tadbirda Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish borasida mamlakatimizda tizimli ravishda tashkil etilayotgan keng ko‘lamli ishlar haqida fikr almashindi. Xotin-qizlarga nisbatan huquqbuzarliklarning oldini olishda ularning muammolari haqida o‘z vaqtida xabar topish va tegishli idoralar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish borasida ma‘lumot berildi.

7. Vazirlik va uning tizimosti tashkilotlari kasaba uyushmasi tomonidan ayollarni, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va sohada faoliyat olib borayotgan ishchilarining salomatligini mustahkamlash borasida sanatoriy va pansionatlarga yo‘llanmalar berildi. “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” loyixasi doirasida vatanimizning tarixiy shaxarlariga ekskursiyalar, ziyorat tashriflari uyushtirildi. Kasaba uyushmasi tomonidan ayollarning madaniy hordiq chiqarishlari uchun kontsert va teatrlarga bepul chiptalar beriladi. Shuningdek, taniqli san‘at sarboblari, shoir va yozuvchilar, olimlar bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar o‘tkazib kelinmoqda.

8. Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizimosti korhonalari Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha 2023 yilda amalga oshirilgan tadbirlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar vazirlikning rasmiy veb sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi saxifalari va OAVda mantazam yoritib borildi.

**Vazirning ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar
samaradorligini oshirish, davlat tili
to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya
etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha
maslahatchisi**



Z. Ahmedova